INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Kommunal xizmatlar sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning o’rni

O.Sh.Mamanazarov
Renessans ta’lim universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi professori
D.Sh.Inoyatova
Renessans ta’lim universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunal xizmatlar sifatini oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, “aqlli” hisoblagichlar, billing tizimlari, “Benuks” tizimi, masofaviy monitoring, elektron murojaatlar va ma’lumotlar bazasi asosida boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha takliflar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: aqlli uy, aqlli shahar, aqlli shirkat, xavfsiz shahar, “Benuks” tizimi, aqlli hisoblagich.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль современных цифровых технологий в повышении качества коммунальных услуг. В частности, представлены предложения по использованию цифровых технологий для повышения эффективности механизмов управления на основе "умных" счетчиков, биллинговых систем, системы "Бенукс" дистанционного мониторинга, электронных обращений и баз данных.

Ключевые слова: умный дом, умный город, умная компания, безопасный город, система "Бенукс" умный счетчик.

Annotation: This article analyzes the role of modern digital technologies in improving the quality of public utility services from a scholarly and theoretical perspective. Specifically, it presents proposals for using digital technologies to increase the efficiency of management mechanisms, such as "smart" meters, billing systems, the "Benux" remote monitoring system, electronic inquiries, and databases.

Key words: smart home, smart city, smart company, safe city, "Benux" system, smart meter.

Bugungi kunda aholining turmush darajasi va hayot sifati ko‘p jihatdan kommunal xizmatlarning uzluksizligi, arzonligi, qulayligi va shaffofligiga bog‘liq. Ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz, issiqlik ta’minoti, chiqindilarni olib chiqish, ko‘p kvartirali uylarni boshqarish kabi xizmatlar shahar infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining ortishi va ko‘p qavatli uy-joylar sonining ko‘payishi kommunal xizmatlar sifatiga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

O‘zbekistonda ham kommunal sohani raqamlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy etish, “aqlli uy” elementlarini rivojlantirish va intellektual servislarni kengaytirish vazifalari belgilangan. 2026-yil holatiga ko‘ra, uy-joy kommunal sohasida “Mening uyim” billing tizimiga qariyb 42 mingta ko‘p qavatli uy va 1,5 milliondan ortiq mulkdor kiritilgani sohada raqamli boshqaruv mexanizmlari bosqichma-bosqich shakllanayotganini ko‘rsatadi.


Shu nuqtayi nazardan, kommunal xizmatlar sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rnini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini innovatsion shakllari “universaluy- joy kommunal xizmati”, “aqlli uy”lar kommunal hisob-kitobini raqamlashtirish tizimining rivojlanishiga va samaradorliginiyuksalishiga olib keladi. Buning uchun kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida aholi turar-joy binolarini avtomatlashtirish, ya’ni “Aqlli uy”lar bunyod etish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda “Aqlli uy” tizimini yaratishda havo harorati, namlik darajasi, atmosfera bosimi va

yoritilganlik darajasi, uy xavfsizligini ta’minlash darajasi kabi ko‘rsatkichlarni nazorat qilishni raqamlashtirishdan keng foydalanib kelinadi.

“Universal uy-joy kommunal xizmati”ni amalga oshirish uchun innovatsion kommunal xizmat ko‘rsatish (“aqlli hisoblagichlar”, “aqlli uy”, “xavfsiz uy”, “aqlli shirkat”) turlaridagi ma’lumot beruvchi qurilmalardan foydalanish talab etiladi. O‘z navbatida, mazkur qurilmalarni birgalikda ishlash jarayonini tashkil etish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, qurilmalarni ishlash jarayonini nazorat qilish uchun maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega xodimlar jamoasi talab etiladi. Ishchi-xodimning ishini nazorat qilish jarayoni boshqaruv sub’ektlari uchun qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi. Bu esa tabiiyki, qo‘shimcha moddiy, moliyaviy va inson resurslarini talab etadi.

Fikrimizcha, bizning tadqiqot ob’ektimiz hisoblangan “SHAYXONTOXUR A’LO SERVIS” BSK dagi kommunal xizmatlar ko‘rsatishdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida masofaviy qurilmalar tizimi kerak bo‘lib, u to‘liq avtonom tarzda, insonaralashuvisiz belgilangan hududdagi havo parametrlari, xususan:



1-rasm. “Universal uy-joy kommunal xizmati” tizimi.

- havo harorati va nisbiy namligi, atmosfera bosimi va yoritilganligini aniqlashi;
- ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda qo‘shimcha qurilmalarni avtomatik tarzda, mustaqil ishga tushira olishi hamda elektr manbaidan uzib qo‘yilishini ta’minlashi lozim.

Bizningcha, “SHAYXONTOXUR A’LO SERVIS” BSKda “Benuks” tizimidan foydalanish maqsadgamuvofiqdir. Chunki, “Benuks” – bu ko‘p funksiyali va protokolli tizim bo‘lib, o‘zining qulayligi uchun nazorat va boshqa sohalarda ham kengqo‘llaniladi (1-rasm).

Bizning fikrimizcha, kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, kommunal xizmatlar sifatini oshirishga hamda ularni tannarxini kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari ko‘p qavatli uylardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan kommunal xizmatlar ko‘rsatishning arzon va muqobil turlarini rivojlantirish lozimdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida e’tirof etilgan holatlar bir tomondan kommunal tizimi samaradorligini oshirishsa, ikkinchi tomondan aholi turmush sifati va darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboqulov B.S. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2021 y.
2. Boboqulov S. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish usullari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil.
3. V.Yodgarov, D.Butunov “Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi” Darslik.Toshkent. “Noshir” nashriyoti. 2012 yil, 18-bet.
4. B.B.Mardonov “Xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi bandligi” Monografiya. Toshkent. ”Fan” nashriyoti. 2013 yil.
5. A.Sidyakin, A.Chibis. “Azbuka dlya potrebiteley uslug JKX” Uchebnik. Moskva. 2015 god.